
Qo'shtepa tumani hokimi o'rinbosari - mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i Z.Kamilovning tuman aholisiga MUROJAATI:

Kuch birlikda - birgalikda yengamiz!

Hurmatli Qo'shtepaliklar!

Dunyoda koronavirus pandemiyasi davom etmoqda, jumladan yurtimizda ham. Muhtaram Prezidentimiz rahbarligida joriy yilning 8 iyul kuni o'tkazilgan videoselektorda "Bu juda murakkab sinov va og'ir kurashda ko'p narsa o'zimizga bog'liq" deya ta'kidlab o'tildi.

Hurmatli tumandoshlar!

Sizlardan maqsadsiz tashqariga chiqmaslik, shaxsiy gigiyenaga to'la rioya etish (qo'l va yuzlarni tez-tez yuvib turish) doimiy ravishda tibbiy niqoblardan foydalanish, qo'l berib ko'rishmaslik, uy va xonadonlarni toza-ozoda saqlash va dezinfeksiya qilib turish, iloji boricha uydan chiqmaslik talab etiladi. Besabr bo'lsak, qoidalarga rioya etmasak, bu barchamizga zarar bo'ladi, faqat qat'iyat va qattiq intizom bilangina bu pandemiya balosini yengib o'tamiz.

Aziz fuqarolar!

Karantinni yana qat'iylashganini to'g'ri tushunib, bunga har birimiz holisona baho berib, karantin tartib qoidalariga to'liq amal qilib, sabrli bo'lsak, bu pandemiya balosini albatta yengib o'tamiz!

Z.Kamilov,

Qo'shtepa tumani hokimi o'rinbosari - mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i.

2020-07-14 13:18:57